

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARINI O'RGANISH ORQALI
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA
TARBIYALASH IMKONIYATLARI**

Tohirova Madinabonu Umidjon qizi

Xalqaro Osiyo universiteti, MM2-BT-23 guruh 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *ushbu maqolada, qadriyat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyat tushunchalarining mazmuni yoritilib, sharq mutafakkirlari asarlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkoniyatlari, o'qish darsligida berilgan mavzularda sharq mutafakkirlarining hayoti, ijodi, faoliyati, ularning o'g'itlari, pedagogik qarashlarini o'rganish tizimli berilganligi va uning ta'lim va tarbiyaviy maqsadlarga asoslanganligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya, sifat, samaradorlik, zamonaviy bilim, ko'nikma, integratsiya, uzviylik, boshlang'ich ta'lim, sharq mutafakkirlari merosi, savodxonlik, kompetentlik, hayotiy ko'nikma, malaka, shaxsiy sifatlar.*

Аннотация. *в данной статье освещается содержание понятий ценность, национальные ценности, общечеловеческие ценности, рассматриваются возможности воспитания младших школьников на основе общечеловеческих ценностей путем изучения трудов восточных мыслителей, рассказывается о том, как систематически дается изучение жизни, творчества, деятельности восточных мыслителей, их учения, педагогических воззрений по темам, изложенным в учебнике по чтению, и основывается ли оно на учебно-воспитательных целях. идет.*

Ключевые слова: *образование-воспитание, качество, эффективность, современные знания, умения, интеграция, преемственность, начальное образование, наследие восточных мыслителей, грамотность, компетентность, жизненные навыки, компетентность, личностные качества.*

Annotation. *in this article, the content of the concepts of value, national values, universal value is highlighted, the possibilities of educating primary school students on the basis of universal values by studying the works of Eastern thinkers, the study of the life, creativity, activities of Eastern thinkers on the topics given in the reading textbook is systematically given and is based on educational and educational goals.*

Keywords: *education, quality, efficiency, modern knowledge, skills, integration, continuity, primary education, heritage of Eastern thinkers, literacy, competence, life skills, competence, personal qualities.*

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor, ularga chuqur va puxta ta'lim - tarbiya berishga, yot g'oyalarga qarshi kurasha oladigan hamda o'zining mustaqil fikrga ega bo'lgan ma'nau yetuk va komil insonlar qilib tarbiyalashga karatilgandir. Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy

xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Bu borada Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy kadriyatlar va ta'lim tizimlari bilan raqobatlashmoqda. Shu nuqtayi nazardan, buyuk ajdodlarimiz bo'lgan islom olamining mutafakkirlari asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egadir”⁵⁴. Shu sababli ham tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldidagi muhim muammolar bo'lib kelmoqda va ular turlicha yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmogdaSharq mutafakkirlari asarlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning imkoniyatlari haqida ilmiy qarashlarimiz va adabiyotlar tahlilini keltirishdan oldin, biz qadriyat, milliy qadriyat va umummilliy qadriyatlar tushunchasiga alohida to'xtalishni lozim topdik.

Qadriyatlar – inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha. U jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatiga baho berganda konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutish kerak.

Milliy qadriyatlar – har bir millatning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash, ishlash va fikrlash tarzida, urf-odatlarida, rasm-rusumlarida, bayramu-sayillarida o'z ifodasini topadi. Bir so'z bilan aytganda, **milliy qadriyatlar – milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir.**

Umuminsoniy qadriyat – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi⁵⁵. Umuminsoniy qadriyatlar – jahon xalqlari uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hamda mezonlar majmuasi maqsad va intilishlarini o'zida ifoda etadi.⁵⁶

⁵⁴ Shavkat Mirziyoyevning IHT TIVK 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 2016y.18-oktabr

⁵⁵ Tillayeva G., Yusupov Q., Boboyev N., Xaldibekova F., Yusupov A. Shaxs ma'naviyatini shakllantirish omillari va vositalari. T: “Falsafa va xuquq instituti” 2009. B.16

⁵⁶ Temirova N.E. Qadriyatlar va yoshlar kamoloti. –T: Falsafa va huquq instituti. 2008. B.26

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashdan asosiy maqsadi - yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Yoshlarimizni qadriyatlar asosida tarbiyalash uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari dasturi amal bo'lib xizmat qiladi. Al- Farobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oni, Firdavsiy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlariga tayanib ish ko'rsa o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlari ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlar va istiqbol istikboli xamda mafkuraviy ong, yashash tarzi hakida, ya'ni avlodlar mushtarakligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uni uch toifaga bo'lish lozim:

Keksa avlod istiklolni ardoqlab shunday erkin va ozod kunlarga yetib kelgani uchun shukronalar aytayotgan bulsa, urta avlod talabchan, ochig'ini aytish kerakki, xayotda uz urnini topayotir, ayrim xollarda, iste'molchilik kayfiyatida xam yelib yugurmokda, yosh avlod esa xayotga faol kirib kelmokda, ularning yashash tarzi to'g'risidagi qarashlarning shakllanishida milliy va ma'naviy qadriyatlarning aloxida urni va axamiyati borligini ta'kidlash mumkin va Ayni paytda, ularning xayotdagi ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni, ya'ni mafkuraviy talablarni idrok etishdagi burchi va mas'uliyatini anglash tuyg'usi tobora usayotganliga guvoxmiz.

Ma'naviy qadriyatlarimiz xususida Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'rifiy merosi borasida yoshlarimizning tasavvur va bilim darajasi kanday? Qayd kilish lozimki o'rta asrlar uygonish davri, bunyodkorlari bulmish allomalar bizning ajdodlarimiz ekanligidan faxrlanamiz. Bu borada Ibn Sinoning ma'naviy merosida kator muammolar tizimida axlok-odob masalalari e'tiborli saloxiyatga egadir. Uning «Burch haqida risola», «Axlok xakida risola», «Insof xasida risola» kabi asarlarida axlok-odobning goyat muxim kirralari bayon etilgan.

Mutafakkirlarning asarlarida, jumladan «Tadbiri manzil» risolasida xam inson tabiati azaldan axloqli yoki axloksiz bulmaydi, degan g'oya muxim axamiyat kasb etadi. Aslida odamlar tayyor fazilat, odat va xayotiy ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiyaning faol ta'siri ostida asta-sekin shakllana boradi. Ta'lim-tarbiya o'zgalarning ma'naviy ta'siri ostida inson uzida ijobiy axlokiy fazilatlarni shakllantiradi yoki «yomon dustlar» ya'ni salbiy odatlar soxibiga aylana boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, yosh avloddan milliy g'oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab

qilmoqda . Uning negizi- milliy qadriyatlarimizdir. «Yangicha yashash, ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot qurish tuyg’usi esa yosh avlod oldiga keksa avlodga qaraganda mas’uliyatliroq vazifalarni qo’ymoqda . Xususan, ong va tafakkur hamda ma’naviy qadriyatlardagi o’zgarishlar hayot talabidan orqada qolayotganligi ma’naviy salohiyatdagi ayrim muammolar bilan bog’liqdir .

Mustaqillik milliy ma’naviyatimizning zaminini tashkil qiluvchi «qadriyatlar», «milliy istiqlob», «milliy iftixor», «milliy g’urur», «milliy ong» kabi tushunchalarning ijtimoiy siyosiy va kundalik hayotimizdagi asosiy ahamiyati va o’rnini qayta tiklab berdi. Bu bizning ma’naviy hayotimizda qo’lga kiritgan katta yutuqlarimizdandir.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda, qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiy hayotning o’zidir, chunki hayotdan mahrum bo’lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo’qqa chiqaradi. Qadriyatlarning boshqa turlari, aslini olganda, hayot ne’matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir.

O’quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab, ta’lim olishga qiziqtirish, ularni har tomonlama ma’naviyatli qilib tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanish milliy mintaletimizga xos bo’lib, samarali natijalarni beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga asoslangan holda ularga sifatli bilim berish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat hissida tarbiyalashda boshlang’ich ta’limda o’qitiladigan fanlar mazmuniga singdirilgan ajdodlar merosi namunalariidan foydalanish bir qator imkoniyatlarga ega. Jumladan,

-yoshlarni erkin fikrlashga o’rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko’maklashish, o’z-o’zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o’z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg’otish;

-o’quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo’lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o’stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o’smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo’llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

-insonparvarlik odobi m’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo’llash;

-yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o’rgatish, sinfda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo’sh vaqtlarida o’quv-tarbiya jarayonini to’ldiradi. Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Demak, buyuk bobolarmizning oʻlmas merosi bugungi yoshlarning maʼnaviy tarbiyasida va ayniqsa ularning milliy dunyoqarashi kengayishida bitmas-tuganmas xazinadir. Ularni ibrat-namuna qilib koʻrsatish orqali yoshlar ongida quyidagi insonparvarlik fazilatlari yanada yuksaladi: mardlik, botirlik, pahlavonlik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda boʻlishlik, doʻstlik va muhabbat tuygʻulariga sadoqatli boʻlishlik va shu kabilar.

Boshlangʻich sinf oʻqish darslari mazmunida Sharq mutafakkirlari merosini oʻrganish jarayonini quyidagicha tahlil qilib, berilgan materiallar oʻquvchilarning yosh xususiyatlariga asosan keltirilgan boʻlib, mavzularning oddiydan murakkabga qarab aks etishi davlat talablari va oʻquvchining qabul qilish imkoniyatlari eʼtiborga olinganligini koʻrishimiz mumkin. Jumladan,

2-sinf Oʻqish darsligida “Otalar soʻzi – aqlning koʻzi” boʻlimida:

1. Tilingni avayla - omondir boshing
2. Ibn Sinoning bolaligi
3. Amir Temur haqida hikoya
4. Non – ulugʻ neʼmat
5. Nima eksang, shuni oʻrasan
6. Taʼzir
7. Mehmon keldi
8. Kichkina Alisher
9. Alisher Navoiy

3-sinf Oʻqish darsligida “Ulugʻlardan oʻrganmoq - oqillik” boʻlimida:

1. Zehni oʻtkir bola.
2. Ibn Sinoning shogirdlari.
3. Elim deb, yurtim deb yashagan inson.
4. Sohibqiron Temur bobo
5. Donolarning donosi.
6. Navoiyning doʻsti.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur.
8. Sayilda
9. Minira
10. Hotamning toyi.

4-sinf Oʻqish darsligida “Vatanimiz oʻtmishidan” boʻlimida:

1. Kitobga ixlos
2. Pahlavon va shoir
3. Alisherning yoshligi
4. Shum bola
5. Shahzodaning bolaligi

Yuqorida keltirilgan mavzularni o'rganish orqali boshlanich sinf o'quvchilarida qadriyatlarimizga bo'lgan ijobiy munosabat yanada oshadi. O'quvchilarda kichik maktab yoshidan boshlab insoniy fazilatlarining tarkib topishiga erishiladi.

O'qish darslarida o'quvchilar turli davr va mamlakatlarda yaratilgan, turlicha dunyoqarash va e'tiqodlarni aks ettirgan, badiiy asarlarning eng yuksak namunalari bilan tanishib boradilar. Shular asosida ularda olam va odamlarning rang-barangligi, ularning takrorlanmasligi, ayni paytda olamning, butun bashariyatning bir butunligi haqidagi tasavvur va qarashlari shakllanib, kengayib, mustahkamlanib boradi. Eng muhimi, u olam va odamga tegishli bo'lgan barcha hodisalarga emosional (hissiy) munosabat bildira oladigan darajaga ko'tariladi, qarashlar, dunyoqarashlar, nuqtayi nazarlar xilma-xilligini kuzatish imkoniga ega bo'ladi.

Adabiy ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilar:

- o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini e'tiborga olib, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag'bat, mehr va muhabbat uyg'otish;

- fuqarolik va vatanparvarlik ruhida, adabiyotga, milliy, madaniy-ma'rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;

- boy ma'naviy dunyosini shakllantirish;

- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;

- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi zarur:

- o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish;

- og'zaki nutqlarining adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

- yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;

- badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go'zallik va nafosatni his etishga o'rgatish;

- badiiy matnni emosional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur hamda ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish.

Bu borada olib borilgan ko'p yillik ilmiy izlanishlarmiz natijalarining ko'rsatishicha, milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz haqidagi batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirish asosida talabalar ilmiy dunyoqarashini

kengaytirishda ularga shaxs ijodiy kamoloti ketma-ketligi haqida ma'lumot berish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Bu ketma-ketlik odam-shaxs darajasiga erishgandan keyingi intellektual salohiyatga ega bo'lgandan boshlab baholansa, talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyati tug'iladi va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida asosli ravishda foydalanishga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'qish darsida ma'naviy-axloqiy yo'nalishlar ustuvorligini ko'zda tutiladi. O'quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o'qish va tahlil qilish asosida ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va qusur haqidagi xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o'zlaridagi axloqiy-ma'naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa o'quvchilar og'zaki hamda yozma nutqlarining rivojida muhim omil vazifasini ado etadi. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori o'sib, ma'naviy dunyosi boyib boradi. Bilimlarni puxta o'zlashtirish, zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali ularda ma'naviy dunyoqarash rivojlantiriladi va umuminsoniy qadriyatlarga ijobiy munosabatlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyul "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz>

3. Buyuk allomalarimiz (Mas'ul muhar. Z.Islomov). Toshkent, Islom universiteti nashr. 2002.–77 b.

4. N.Dilova Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida /Pedagogik akmeologiya/2023y 1-son, 45-bet Boshlang'ich 1-4-sinf O'qish kitobi. 2022yil